



## Some of the problems that arise in the application of punishment-stealing situations and their elimination

Vokhid SUNNATOV<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received February 2021  
Received in revised form  
28 March 2022  
Accepted 20 April 2022  
Available online  
15 May 2022

**Keywords:**

use of aggravating  
circumstances,  
social danger,  
violation of the status of a  
young child or a person  
whose permission is clearly  
evident,  
to a person in a state of  
weakness,  
severe consequences,  
low intentions,  
individualization of  
punishment.

### ABSTRACT

In this article we will talk about the possible and emerging problems associated with the application of aggravating circumstances, first of all, we will address these problems by developing our proposals to ensure that the principles of the Criminal Code and the Criminal Procedure Code work on the basis of specific criteria in the appointment of punishment for the crime committed here., Speaking about the possible and emerging problems associated with the application of aggravating circumstances, we should first develop our proposals to ensure that the criteria for justice and the principles of the Criminal Code and the Criminal Procedure Code work on the basis of specific criteria in the appointment of punishment for the crime committed here.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp5-12>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashda yuzaga keladigan ayrim muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

### ANNOTATSIYA

**Калит сўзлар:**

og'irlashtiruvchi holatlarni  
qo'llash,  
ijtimoiy xavfliligi,  
yosh bola yoki ruhiy holati  
buzilganligi,  
aybdorga ayon bo'lgan

Ushbu maqolada og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash bilan bog'liq vujudga kelishi mumkin bo'lgan hamda vujudga kelayotgan muammolar haqida so'z yuritar ekanmiz, biz, birinchi navbatda, bu yerda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda adolat mezonlari hamda Jinoyat kodeksi hamda Jinoyat-protsessual kodeksi prinsiplarining aniq mezonlar

<sup>1</sup> Doctor of Philosophy in Law (PhD), Tashkent State University of Law Acting Assistant Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption. E-mail: [sunnatovv@mail.ru](mailto:sunnatovv@mail.ru).

shaxslar,  
ojiz ahvoldagi shaxsga,  
og'ir oqibatlar,  
past niyatlar,  
jazoni individuallashtirish.

asosida ishlashini ta'minlash yuzasidan o'z takliflarimizni ishlab chiqish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan o'z takliflarimizni ishlab chiqishimiz lozim.

## Некоторые проблемы, возникающие при применении наказания за хищение и вопросы их устранения

### АННОТАЦИЯ

#### **Ключевые слова:**

Применение отягчающих обстоятельств, общественно опасных деяний, лиц, в совершении которых виновен малолетний ребенок или психическое расстройство, к лицу, находящемуся в беспомощном состоянии, тяжелые последствия, низкие намерения, индивидуализация.

Говоря о возможных и возникающих проблемах, связанных с применением отягчающих обстоятельств, в данной статье мы в первую очередь обращаем внимание на необходимость устранения этих проблем путем разработки собственных предложений по обеспечению функционирования на основе четких критериев критериев справедливости и принципов уголовного кодекса и Уголовно-процессуального кодекса при назначении наказания за совершенное здесь преступление. Говоря о возможных и возникающих проблемах, связанных с применением отягчающих обстоятельств, мы должны, в первую очередь, выработать здесь свои предложения по обеспечению функционирования на основе четких критериев критериев справедливости и принципов уголовного кодекса и Уголовно-процессуального кодекса при назначении наказания за совершенное преступление.

Bugungi kunda bir xil jinoyat uchun bir xil jazo chorasini qo'llash bu jazoni individuallashtirish jarayonining ishlashini istisno qiladi. Shu sababdan ham jinoyat huquqida jazoni yengillashtiruvchi hamda og'irlashtiruvchi holatlar tushunchalari kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat qonunining qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik prinsiplari qonunan mustahkamlab qo'yildi. Og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash bilan bog'liq vujudga kelishi mumkin bo'lgan hamda vujudga kelayotgan muammolar haqida so'z yuritar ekanmiz, biz, birinchi navbatda, bu yerda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda adolat mezonlari hamda Jinoyat kodeksi hamda Jinoyat-protsessual kodeksi prinsiplarining aniq mezonlar asosida ishlashini ta'minlash yuzasidan o'z takliflarimizni ishlab chiqish orqali ushbu muammolarni bartaraf etishimiz lozim.

Birinchiidan, **homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir qilish.** Ushbu holatda hech bir muammo bo'lishi mumkin emas. Chunki onaga qilingan har qanday jinoyat natijasi homilaga salbiy ta'sir qilishi mumkin. To'g'ri, ba'zan sodir etilgan jinoyatlar onaga unchalik ta'sir qilmasligi mumkin, masalan, firibgarlik yoki o'g'rilik jinoyati sodir etilganda tan jarohatlari yetkazilmaydi. Lekin uning ijtimoiy xavfliligi shundaki, homilaga ayolning ruhiy o'zgarishlari ham salbiy ta'sir qiladi. Shu sababdan ham har qanday holatda og'irlashtiruvchi holat sifatida qaralmog'i lozim.

**Yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan** jinoyat sodir qilish holatida yosh bolaga nisbatan qilinadigan jinoyatga ushbu holatni inobatga olish bilan bog'liq muammo uchramaydi. Chunki bu holat aniq ko'rinib turgan bo'ladi hamda yosh

bola deb kimlar e'tirof etilishi ham qonunda belgilab qo'yilgan. Albatta, shaxs bolaning tashqi ko'rinishi tufayli yanglishgan hollar bundan mustasno. Lekin qariya yoki o'jiz ahvoldagi shaxslarni inobatga olishda biroz tushunmovchiliklar uchrab turishi mumkin, masalan, yoshi 58 da va u erkak kishi, hamda 60 yoshli sobiq sport murabbiyiga nisbatan jinoyat sodir etmoqda, Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganning yoki homilador ayolning jinoyat sodir etishi yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinadi, lekin qariyaning jinoyat sodir etishi yengillashtiruvchi holat emas, jazo tayinlashda ham faqat 60 yoshdan o'tgan erkaklarga ma'lum bir yengilliklar berilgan. Agar yuqoridagi holatni og'irlashtiruvchi holat deb oladigan bo'lsak, jinoyat huquqining insonparvarlik hamda odillik prinsiplariga, albatta, zid bo'lmaydi, lekin biroz to'g'ri kelmasligi mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda qarilikni faqat yosh mezonini asosida emas, balki shaxsning jismoniy holatlarini ham inobatga olgan holda belgilanishi to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Keyingi holat **yosh bola yoki ruhiy holati buzilganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxslardan foydalangan holda** jinoyat sodir etish. Bunda qonun chiqaruvchi bir jihatini inobatga olmagan, ya'ni "**ruhiy holati buzilganligi**" darajasi inobatga olinmagan, ya'ni shaxsning ruhiy holati buzilgan bo'lishi mumkin, lekin uning darajasi yuqori bo'lmasligi ham mumkin, ya'ni u o'z harakatlarining mohiyatini anglab yetayotgan bo'lishi ham mumkin, misol uchun, oddiy stress holati haqida gapiradigan bo'lsak, ushbu holat ham ruhiy kasalliklardan biri hisoblanadi, lekin uning darajasi yengil. Ya'ni shaxs stress holatida ham o'z harakatlarining mohiyatini tushunib yetadi. Shu sababdan ham ushbu holatni og'irlashtiruvchi holat deb olish uchun faqat aqli noraso shaxslardan foydalangan holda sodir etilganda vujudga kelishi kerak, bundan tashqari, alkogolli ichimlikdan yoki psixotrop moddalar ta'sirida kuchli darajada mast shaxsga nisbatan jinoyat sodir qilinganda o'jiz ahvoldagi shaxsga nisbatan jinoyat sodir qilish deb baholanadi. Lekin nima sababdan, kuchli darajada mast shaxsdan foydalangan holatda jinoyat sodir qilish og'irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinmaydi? Yosh boladan yoki ruhiy holati buzilgan shaxsdan foydalangan holda jinoyat sodir etishning ijtimoiy xavfliligi sifatida yuqoridagi shaxslar, qilmishning ijtimoiy xavfliligini tushunib yetmasligi hamda o'z harakatlarining mohiyatini anglab yetmasligida deb ifodalanadi. Axir, kuchli darajada mast shaxs ham o'z harakatlarining mohiyatini tushunib yetmaydi-ku, shularni inobatga olgan holda JKning 56-moddasi 1-qismi "j" bandini: "**yosh bola yoki ruhiy holati og'ir darajada buzilganligi aybdorga ayon bolgan yoki kuchli darajada mast shaxsdan foydalangan holda**" deb o'zgartirishni taklif etamiz.

JKning 56-moddasi 1-qismi "z" bandi, ya'ni **jinoyat natijasida boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi** – ushbu holat ham tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Amaldagi Jinoyat kodeksida og'ir oqibatlar tushunchasi ochiq qolgandi, lekin muhokamaga qo'yilgan Jinoyat kodeksining 3-moddasiga ko'ra:

**Og'ir oqibatlar** – ushbu kodeksda jinoyatni malakalovchi belgisi sifatida ko'rsatilmagan quyidagi oqibatlarni nazarda tutadi: shaxsning o'limi, ikki yoki undan ortiq shaxsning o'limi, jabrlanuvchining yoki uning yaqin qarindoshining o'zini o'zi o'ldirishi, sog'liqqa og'ir ziyon yetkazilishi, ommaviy zaharlanish, kasallanish yoki yuqumli kasalliklarning tarqalishi, istalmagan homiladorlik, texnogen yoki ekologik falokat, favqulotda ekologik hodisa, ko'p yoki juda ko'p miqdordagi zarar, davlatning xavfsizligiga xavfning vujudga kelishi, avariya yoki halokat, harbiy qism jangovar tayyorgarligining pasayishi, jangovar texnikalarning ishdan chiqishi, jangovar vazifalarning bajarilmasdan qolishi yoki yetkazilgan zararining og'irligidan dalolat

beruvchi boshqa oqibatlar ekanligi nazarda tutilgan. Bu yaxshi, albatta, lekin og'ir oqibatlar tushunchasi judayam keng hisoblanadi hamda har bir jinoyat uchun har xildir, shularni inobatga olgan holda qonun chiqaruvchi og'ir oqibatlar nazarda tutilgan har bir jinoyat uchun og'ir oqibatlarining taxminiy versiyalarini modda dispozitsiyasining o'zida bersa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Misol uchun, nomusga tegish jinoyatida qizning qizlik pardasi buzilishini ham og'ir oqibat sifatida olishimiz lozimligi to'g'risida yuqorida fikr bergan edik, lekin bu holatga qonun chiqaruvchi og'ir oqibat deb qaramayapti. Og'ir oqibatlarining modda dispozitsiyaning o'zida berilishi sudlar uchun ham ancha qulaylik tug'dirishi bilan bir qatorda, shaxsga nisbatan asossiz ravishda boshqa holatlarni og'ir oqibat sifatida baholamaslik imkoni yaratadi.

JKning 56-moddasi 1-qismi "k" bandi, ya'ni **g'arazli yoki boshqacha past niyatlarda** jinoyat sodir etish holati. Shuni alohida ta'kidlab o'tishim joizki, Jinoyat kodeksining loyihadagi variantida amaldagi kodeksdagi ko'plab holatlarga oydinlik kiritib ketilgan, og'ir oqibatlar singari ushbu kodeksda "**past niyat**" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan, unga ko'ra:

"**past niyatlar** – jinoyat sodir etishga undagan nomoddiy ko'rinishdagi shaxsiy (hasad, xudbinlik, o'ch olish, mansabparastlik va boshqalar) niyatlardir" deb belgilangan. Lekin bu holatga bizning e'tirozimiz bor. Bizning fikrimizcha, ushbu holatni qayta ko'rib chiqish lozim. Negaki past niyatlar faqat yuqoridagi keltirib o'tilgan holatlar emas. Umuman olganda, qonunni mensimaslikning o'zi past niyatni ifodalaydi. Bundan tashqari, qasddan sodir etiladigan jinoyatlarning hammasida u yoki bu past niyat bor. Shularni inobatga olgan holda, JKning 56-moddasi 1-qismi "k" bandidan "boshqacha past niyatlarda" jumlasini olib tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda, yuqorida aytib o'tganimizdek, qasddan sodir etilgan barcha jinoyatlar uchun ushbu holatni og'irlashtiruvchi holat sifatida olishimizga to'g'ri kelib qoladi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli Qarorining 5-bandiga ko'ra, qasddan odam o'ldirish jinoyati rashk tufayli, o'ch olish, hasad, adovat, nafrat oqibatida sodir etilgan bo'lsa, JKning 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi, deb belgilangan. Ushbu holatda o'ch olish yoki hasadni og'irlashtiruvchi holat deb qarasa, JKning 97-moddasi 1-qismi uchun har doim og'irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olishimizga to'g'ri keladi.

JKning 56-moddasi "o" bandi **mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish**. Mazkur holatda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mastlik holati har doim ham jinoyatning tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Misol uchun, pora olish, pora berish yoki olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarida mastlik holatining ahamiyati sezilmaydi. Shu sababdan ham shu va shunga o'xshash holatlarda mastlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olmaslik lozim. Shularni inobatga olgan holda ushbu bandni yuqoridagi Litva tajribasini inobatga olgan holda, **mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish, agar ushbu holat jinoyat sodir etilishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa**, deb o'zgartirishini taklif etamiz.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi o'z Plenum Qarori bilan jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llash yuzasidan tushuntirish berishi lozim.

Yana qonun chiqaruvchi yangi loyihadagi Jinoyat kodeksining 63-moddasini: **“Agar shaxsning qilmishida jazoni yengillashtiruvchi holatlar bo’lmasa va jazoni og’irlashtiruvchi holatlardan kamida bittasini o’z ichiga olgan bo’lsa, eng kam sanksiyada ko’zda tutilgan choradan ko’ra og’irroq jazo tayinlash sud uchun majburiydir”**, degan norma kiritilishi lozim.

Shu o’rinda og’irlashtiruvchi holatlarni qo’llash bo’yicha sud amaliyotidan misol keltirib o’tmoqchiman. 2021-yil 9-aprel kuni Jinoyat ishlari bo’yicha Quva tuman sudida O’zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 3-qismi “a” bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda ayblangan Turakulov Ziyodbek Djurabaevich (muqaddam sudlangan)ga oid 1-1511-2101/42-sonli jinoyat ishi ko’rib chiqilgan. Ishning mohiyatiga to’xtalib o’tirmaymizda, undagi sud tomonidan inobatga olingan og’irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni hamda sud tayinlagan jazoni ko’rib chiqamiz. Demak, sud sudlanuvchi Z. Turakulovga jazo turi va miqdorini tayinlashda, uning qilmishidan pushaymonligi, qaramog’ida ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari borligi, jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararlar jami 820 ming so’mni tashkil etib, uncha ko’p miqdor emasligi, zarar to’liq qoplangani, jabrlanuvchilarning sudlanuvchiga nisbatan hech qanday da’vosi yo’qligini jazoni yengillashtiruvchi holat deb hisoblab, JKning 57-moddasi qo’llab 3 yil OMQ jazosini tayinlagan. Endi xuddi shu moddaning aynan shu qismi bilan hukm qilingan boshqa bir hukmga nazar solamiz.

2021-yil 8-aprel kuni jinoyat ishlari bo’yicha Qo’qon shahar sudida O’zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi 3-qismi “a” bandi bilan ayblangan I.U. (muqaddam sudlangan)ga nisbatan 1-1503-2105/-sonli jinoyat ishi ko’rib chiqildi. Ushbu ishda sud I.U.ga nisbatan jazo tayinlashda g’arazli niyatlarda, mastlik holatida jinoyat sodir etganligini jazoni og’irlashtiruvchi holat deb topib, aybiga to’liq iqror va qilmishidan chin ko’ngildan pushaymonligini, qaramog’ida bir nafar voyaga yetmagan farzandlari borligini, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar to’liq qoplanganligini jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olib, JKning 57-moddasini qo’llab, bu holatda ham 3 yil OMQ tayinlagan. Birinchi holatda og’irlashtiruvchi holatlar yo’q bo’lishiga qaramasdan 3 yil OMQ tayinlangan, ikkinchi holatda esa, birinchidan, JK 169-moddasi iqtisodiyot sohasiga qarshi jinoyat bo’lganligi bois bu turdagi jinoyatlar hammasi g’arazli maqsadlarda sodir etiladi. Shu sababdan sud ushbu holatni og’irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olmasligi kerak edi. Shunday bo’lsa-da, uning qilmishida mastlik og’irlashtiruvchi holati bor, lekin sud unga ham 3 yil OMQ tayinlamoqda. To’g’ri, hozirgi davrda jinoyatlar va jazolar liberallashtirish, imkon qadar shaxsga yengillik berishga harakat qilinmoqda, lekin barcha shu kabi ishlarda shunga o’xshash hukmlar chiqaversa, unda og’irlashtiruvchi holatlar o’z ahamiyatini yo’qotib qo’yadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shaxsning harakatlarida og’irlashtiruvchi holatlarning bir nechtasi bo’lgan taqdirda, sud tomonidan JKning 57-moddasini qo’llash masalasini ko’rib chiqish lozim.

Bundan tashqari, agar shaxsning harakatlarida JKning 55-moddasi 1-qismi “I” bandida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holat bo’lgan taqdirda uning qilmishidagi og’irlashtiruvchi holatlarni jazo tayinlashda inobatga olmaslikni va bu haqida Plenum qarorida yoki Jinoyat kodeksining o’zida nazarda tutishni taklif etamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, jazoni og’irlashtiruvchi holatlar, jinoyat qonunida jazoni individualizatsiya qilishda eng muhim o’rinni egallaydi. Jazoni og’irlashtiruvchi holatlar jazoni individuallashtirishning muhim shartlaridan biri bo’lib, O’zR JKning

54-moddasida belgilanishicha sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi", – deyiladi. Ushbu qoidadan ko'rinib turibdiki, og'irlashtiruvchi holatlar JK 54-moddasida nazarda tutilgan jazo tayinlashda hisobga olinishi kerak bo'lgan har bir holatda bo'lishi mumkin. Shaxsning qilmishida og'irlashtiruvchi holatlar bo'lgan taqdirda unga nisbatan sud og'irroq jazo tayinlaydi. Sud jazo tayinlash vaqtida adolat va insonparvarlik prinsiplariga qat'iy rioya qilib, O'zR JKning 54-moddasida belgilangan qoidalarga asoslangan holda jazo tayinlaydi. Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi.

Jazo tayinlashda jazoni individuallashtirishning eng muhim sharti jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni e'tiborga olishdir. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar ma'lum darajada qilmishni ijtimoiy xavfliligini belgilovchi mezon hisoblanadi.

Ushbu mavzuni tadqiq qilish jarayonida amaldagi qonunchilikni hamda xorijiy tajribani inobatga olgan holda mazkur holatlarni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni beramiz:

– qarilikning faqat yosh mezoni asosida emas, balki shaxsning jismoniy holatlarini ham inobatga olgan holda belgilanishi;

– JKning 56-moddasi 1-qismi "j" bandidini "yosh bola yoki ruhiy holati og'ir darajada buzilganligi aybdorga ayon bo'lgan yoki kuchli darajada mast shaxsdan foydalangan holda" deb o'zgartirish;

– og'ir oqibatlar nazarda tutilgan har bir jinoyat uchun og'ir oqibatlarining taxminiy versiyalarini modda dispozitsiyasining o'zida nazarda tutish;

– JKning 56-moddasi 1-qismi "k" bandidan "boshqacha past niyatlarda" jumlasini olib tashlash;

– JKning 56-moddasi "o" bandini "mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish, agar ushbu holat jinoyat sodir etilishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa" deb o'zgartirish

– Jinoyat kodeksining 63-moddasiga "Agar shaxsning qilmishida jazoni yengillashtiruvchi holatlar bo'lmasa va jazoni og'irlashtiruvchi holatlardan kamida bittasini o'z ichiga olgan bo'lsa, eng kam sanksiyada ko'zda tutilgan choradan ko'ra og'irroq jazo tayinlash sud uchun majburiydir" degan qoida kiritish;

– agar shaxsning harakatlarida JKning 55-moddasi 1-qismi "l" bandida nazarda tutilgan yengillashtiruvchi holat bo'lgan taqdirda uning qilmishidagi og'irlashtiruvchi holatlarni jazo tayinlashda inobatga olmaslik lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M. Usmonaliev, P. Bakunov. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: "Nasaf" nashriyoti, 2010. – B. 616.

2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – B. 335.

3. M. Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2005. – B. 662.

4. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. – T.: ILM-ZIYO, 2006. – B. 387.
5. M. Usmonaliev, P. Bakunov. Jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish. O'quv qo'llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2006. – B. 64.
6. Sukiyanen L.R. Musulmon huquqi. Darslik. "Наука" – M.: 1986.
7. Блиндер Б.А. Уголовно-правовая охрана свободы и достоинства женщины. – T.: ТашГУ, 1971. – С. 52.
8. Расулов А.А. Применение уголовного наказания За вовлечение несовершеннолетнего в преступную деятельность. В кн.: Совершенствование законодательства о борьбе с преступностью. – T.: «Фан». 1982. – С. 127.
9. Кругликов Л.Л. Смягчающие и отягчающие обстоятельства советском уголовном праве. Часть особенная. – Ярославль, 1979.
10. Андреева Л.А. О характере принуждения при изнасиловании. "Правоведение" 1960, N2, – С. 155; Состав преступления изнасилования в советском уголовном праве. Автореф. канд. дисс. – Л.: 1962, – 0.9.
11. Сердюков М.Г. Судебная гинекология и судебное акушерство – М.: 1964, -0.93 З. Игнатов А.Н. Квалификация половых преступлений. – н. Юрид. лит-ра, 1974. – С. 54
12. Кругликов Л.Л. Общепасный способ совершения преступления как обстоятельство отягчающее ответственность // «Советская остиция». 1077. О. – С. 10–11.
13. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 13-14-betlar.
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – www.lex.uz
15. Шамсидинов, Зайниддин Зиёвиддинович. "Ноқонуний молиявий операциялар билан боғлиқ айрим қилмишларни квалификация қилиш масалалари". Журнал правовых исследований Special 3 (2020).
16. Xudaykulov F. Theoretical aspects of facultative signs of the objective side of crime and their legal significance // ProAcademy. – 2018. – Т. 1. – №. 4. – С. 75-79. 18:41.
17. Allanova A.A., Kaustav C.A. Comparative Study of The Economic Crime In Uzbekistan And India: A Critical Analysis // The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 73–78.
18. Алланова А.А. Европа давлатлари ва Америка Қўшма Штатларида қонунга хилоф равишда давлат чегарасидан ўтиш билан боғлиқ жиноятлар учун жавобгарлик масалалари // журнал правовых исследований. – 2020. – Т. 5. – №. 8.
19. А. Алланова. Незаконный выезд за границу или въезд в Республику Узбекистан. Понятие и особенности // Review of law sciences. 2018. №2. (дата обращения: 16.11.2021).
20. Алланова Азиза Антисоциальное поведение несовершеннолетнего – объективный признак преступления в виде вовлечения в действия // Review of law sciences. 2020. № Спецвыпуск. (дата обращения: 16.11.2021).
21. Allanova A.A. Responsibility for Crimes Related Unlimited Border In European Countries And The United States Of America // "Electronic Journal" Legal Research. – 2020. – Т. 8. – №. 5.

22. Курбанов М. Особенности уголовной ответственности должностных лиц // Правовые исследования. – 2017. – №. 2. – С. 35–45.
23. Курбанов Маъруфжон. Понятие, виды незаконных финансовых операций и международные стандарты противодействия им // Review of law sciences. 2020. № Спецвыпуск. (дата обращения: 06.12.2021
24. Kurbanov Marufjon Mamadaminovich. Criminal-legal analysis. OF SOME Crimes related to obstruction of business activity in Uzbekistan. Journal of Law Research. 2020. – Vol. 5. – Issue 1. – PP. 46–52.
25. Salaev N., Khamidov N. Qualification of Smuggling: Uzbek Legislation and Foreign Experience // Ilkogretim Online. – 2021. – Т. 20. – №. 3.
26. Хайдаров Ш. Ненадлежащее исполнение профессиональных обязанностей: Причины совершения и допустимые условия преступления // Review of law sciences. – 2020. – Т. 2. – №. Спецвыпуск.
27. Хайдаров Ш. Measures of preventing crime of non-performance of ones duties in their profession // Юридик фанлар ахборотномаси. – 2018. – №. 4. – С. 105–108.
28. Khaydarov S. Measures of preventing crime of non-performance of ones duties in their profession // Review of law sciences. – 2018. – Т. 2. – №. 4. – С. 22.
29. Хайдаров Ш. Меры по предотвращению преступлений по несоответствующему исполнению своих профессиональных обязанностей // Review of law sciences. – 2018. – №. 4. – С. 105–108.
30. Эрматов Г., Хайдаров Ш. Ответственность за оставление в опасности: Учебное пособие // Ташкент: ТГЮИ. – 2010. – С. 92.
31. Хайдаров Ш.Д. Компаративный анализ ответственности за ненадлежащее исполнение профессиональных обязанностей в уголовном законодательстве зарубежных стран // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. – 2017. – №. 2 (63).